

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

AI-XORAZMIY NOMLI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI



TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI

“IQTISODIYOT” KAFEDRASI

“INVESTITSIYA LOYIHALARI TAHLILI”
fanidan

KURS ISHI

MAVZU: “2010-2015 yillarga mo'ljallangan
investitsion dastur va uning iqtisodiy mohiyati”

QABUL QILDI:  O'qit: Q.I. Xamrayev

BAJARDI:  401-iqt guruhi talabasi: M. Quryozov

Urganch – 2016

MAVZU: 2010-2015 yillarga mo'ljallangan investitsion dastur va uning iqtisodiy mohiyati.

REJA:

I. Kirish.

II. Asosiy qisim.

2.1 O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalashda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ahamiyati va xususiyatlari.

2.2 2010-2015 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturining iqtisodiy ahamiyati.

2.3 2010-2015 yillarga mo'ljallangan investitsion dastur bo'yicha amalga oshirilgan ishlar.

2.4 Investitsiya dasturi doirasida Xorazm viloyatida amalga oshirilgan ishlar.

III. Xulosa.

IV. Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va barqarorligini taminlashda investitsiyalarning, shu jumladan xorijiy investitsiyalarning beqiyos o'rin tutishini alohida takidlashda holda shuni aytish mumkinki, investitsiyalarga etiborning kuchayishi bugungi kunga kelib, mamlakatimizdagi investitsion faoliyatning rivojlantirilishiga olib keldi. Investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni, ishlab chiqarishni rivojlantiruvchi eng muhim omil ekanligini e'tirof etgan holda, milliy iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalar hajmining yildan-yilga ortib borayotganini alohida aytib tish mumkin. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov shunday ta'kidlaydi: "O'ttuz yilda iqtisodiyotimizga 13 milliard dollari miqdorida ichki va xorijiy investitsiyalar jalb etildi. Mamlakatimizda investitsiya jarayonlarini rivojlantirish kapital mablag'larni jamg'arish, bu mablag'larni iqtisodiyotning strategik jihatdan muhim bo'lgan sohalarga ajratirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini yaratish orqali milliy investitsiya bozorlarining shakllanishiga ko'maklashadi hamda tovar va xizmat ko'rsatish bozorlari rivojlanishining boshqa omillariga ham ko'pgina tasir ko'rsatadi"¹. Bu o'rinda investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini obektiv baholash, baholashning jahonda keng tarqalgan usullaridan amaliyotda foydalanishni taminlash hamda investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash usullarini va kompleks ekspertiza qilishni takomillashtirish hozirgi investitsiya jarayonlarini yanada rivojlantirishning asosiy muammolaridan biri li qolmoqda. Mamlakatimizda bozor infratuzilmasining hali yaxshi rivojlanmaganligi, huquqiy bazaning mukammal va barqaror emasligi, inflyatsiya darajasi, axborot taminoti bazasining mavjud emasligi, amaliyotda mamuriy aralashuv holatlarining hali ham toliq barham topib ulgurmaganligi, valyuta

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan ma'ruzasi. 16.01.2016

riskining mavjudligi va boshqalar tijorat banklarida investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashga salbiy ta'sir etuvchi umumiy sabablardir. Shunday ekan, investitsiya jarayonlarini rivojlantirish, ularni moliyaviy taminlash va banklarning rolini kuchaytirish hamda investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashning xorij tajribalarini, shuningdek, amaliyotga keng tadbiq etish va bu borada duch kelinadigan muammolarni hal etish mazkur bitiruv malakaviy ishning dolzarbligini ochib beradi.

1. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalashda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ahamiyati va xususiyatlari.

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va rivojlantirishda bugungi kunda asosiy e'tibor iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar va ularning salmog'iga qaratilmoqda. Chunki iqtisodiy o'sishni ta'minlashda investitsiyalarning hajmi va ularning tarkibi muhim ahamiyat kasb etadi. Shularni inobatga olgan holda, Prezidentimiz tomonidan mamlakatimiz iqtisodiy siyosati istiqbolini belgilab berishda ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida investitsiyalarni keng jalb etish, ayniqsa, xorijiy investorlar uchun yanada qulay sharoitlarni yaratishga e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalar hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Buni birgina 2015 yilda kiritilgan jami investitsiyalar hajmidan ham bilib olish mumkin. Milliy iqtisodiyotga o'tgan yili kiritilgan jami investitsiyalar xajmi yilga nisbatan 14 foizga ko'p bo'lib, qiymati 15 milliard 700 million AQSh dollaridan ortiqdir². Jami investitsiyalarning 74 foizdan ortiq mamlakatimizning ichki manbalari hisobidan - korxonalar va aholi mablag'lari, investitsiya jarayonlarida tobora faol ishtirok etayotgan tijorat banklari kreditlari, shuningdek, davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan shakllantirilmoqda. Iqtisodiyotimizga kiritilayotgan investitsiyalarning yildan-yilga o'siborishida yurtimizdagi mavjud investitsion sharoit va qulay investitsiya muhiti alohida ahamiyat kasb etayotganini ta'kidlash joiz. Respublikamiz iqtisodiyotida investitsiyalarning so'nggi olti yildagi o'sish sur'atlari turlicha bo'lib, bunda oldingi yillardagiga nisbatan o'sish va pasayish tendentsiyalari kuzatilmoqda. Hozirgi globallashtirish sharoitida, bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqib, jahonda investitsiyalar uchun qat'iy keskin kurash davom etmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, mamlakatimiz iqtisodiyotiga bevosita xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishini ta'minlaydigan huquqiy,

² www.stat.uz

ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, mablag'larni eng ustuvor yo'nalishlarda hamda raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq yo'nalishlarda mujassam qilish respublikada o'tkazilayotgan investitsiya siyosatining asosiy tamoyillaridir. Belgiyalik olim Xilbern Boysning fikriga ko'ra "Katta iqtisodiy, mineral- xomashyo va inson salohiyatiga ega bo'lgan. O'zbekiston xorijiy sarmoyadorlarni, avvalo, mamlakatdagi barqaror siyosiy vaziyat bilan o'ziga jalb etadi. Ushbu mamlakatda tatbiq etilayotgan barcha yangilanishlar respublikani yanada ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish va gullab-yashnatishga kafolat bo'ladi"³. Statistik tahlillarni milliy valyutimiz misolida davom ettiradigan bo'lsak, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2011 yilning yanvar-dekabr oylarida 18291,3 milliard so'mlik kapital qo'yilmalar o'zlashtirilgan. Investitsiyalarning umumiy hajmida markazlashgan investitsiyalar 17,5 foizni (3198,7 milliard so'm), investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 23,9 foizni (2-rasm) tashkil etga.

O'zbekiston jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hukm surayotgan bir sharoitda ham ulkan xorijiy investitsiyalar yo'naltirilayotgan mamlakatlar guruhidan joy olmoqda. Bunga, albatta, mamlakatimizda olib borilayotgan va uzoq strategik maqsadlarni ko'zlagan investitsiya dasturlari hamda qulay investitsiya muhiti yaratilgani asosiy omil bo'lmoqda. Davlat investitsiya dasturlari doirasida jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 2011 yilda 2006 yilga qaraganda qariyb to'rt barobarga ko'paygan. 2011 yilda to'g'ri dan-to'g'ri investitsiyalar umumiy xorijiy investitsiyalarning qariyb 78,8 foizini tashkil etgan. Bu eng avvalo Prezidentimiz tomonidan mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotni diversifikatsiya etish jarayonining to'g'ri va aniq olib borilayotgani natijasidir.

Milliy iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalarning ahamiyati to'g'risida gapirganda, albatta "investitsiya loyihasi" degan tushunchaning mazmuni, mohiyati to'g'risida to'xtalib o'tish lozim.

³ O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. /№ 3/2011 y., 19 b.

“Investitsiya loyihasi” tushunchasining tobora keng qo’llanilishi, avvalo, butushunchaning iqtisodiy mohiyatini anglab olish zaruriyatini keltirib chiqaradi. “Investitsiya loyihasi” tushunchasi ikki xil ma’no da talqin etiladi:

- muayyan maqsadlarga erishishni (ko’zlangan natijalarni hosil qilishni) ta’minlovchi qandaydir faoliyatlar yig’indisini amalga oshirishni nazarda tutuvchi ish, faoliyat, tadbir sifatida tushuniladi. Bunday hollarda “xo’jalik tadbiri”, “ish (ishlar yig’indisi)”, “loyiha” terminlari ushbu tushunchalarga mazmunan yaqin keladi.


- qandaydir faoliyatlarni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan huquqiy- boshqaruv va moliyaviy-hisob hujjatlari tizimi yoki bunday faoliyatlar tizimini bayon etuvchi hujjatlar to’plami sifatida qaraladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda, darslik va o’quv qo’llanmalarda “investitsiya loyihasi” ikkinchi mazmundagi tushuncha sifatida qo’llaniladi. “Loyiha” tushunchasi birinchi mazmun bo’yicha tushuniladi. “Investitsiya loyihasi” tushunchasi uning yo’naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish, ob’ektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonlarini, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek tegishli boshqaruv qarorlari va tadbirlarni o’zida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida qaralishi mumkin. Toliq shakllangan, yakuniga etgan investitsiya loyihasini tuzish va amalga oshirish umumiy holda quyidagi bosqichlarni o’z ichiga qamrab oladi: investitsiya g’oyasini shakllantirish; investitsion imkoniyatlarni tadqiq etish; investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash; shartnoma hujjatlarini tayyorlash; loyiha (ishchi) hujjatlarini tayyorlash; qurilish-montaj ishlari; ob’ektni ishga tushirish va investitsiya loyihasi (iqtisodiy ko’rsatkichlar) monitoringini olib borish.

Investitsiya loyihasi o’z maqsadi, yo’nalishi, amal qilish sohasi, muddati va chegarasiga ega bo’lgan alohida faoliyat turi hisoblanadi. U tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy jihatdan to’liq va mukammal hisob-kitoblar yordamida asoslangan yuridik hujjat hisoblanadi.

Investitsiya loyihasining boshqa hujjat va “loyiha”lardan asosiy farqi shundaki, u haqiqiy hujjat sifatida qaror topishi uchun uning barcha tomonlari maxsus usullar yordamida keng va aniq hisob-kitoblar bilan baholanadi. Shu bilan birga uning amalga oshirilishi muayyan miqdordagi mablag’ larni safarbar etishga asoslanadi.

Investitsiya loyihalarining turlicha klassifikatsiyalari mavjud bo’lib, belgilariga qarab investitsiya loyihalarining quyidagi ishleri i ajratish mumkin.



Investitsion loyihalarning samaradorligini baholash texnik, texnologik, moliyaviy, tarmoq yoki hududiylik xususiyatlariga bog’liq bo’lmagan holda yagona tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Ular quyidagidan iborat:

- loyihani uning butun hayot tsikli davomida ko’rib chiqish;
- pul oqimlarini modellashtirish, bunda loyihani amalga oshirish bilan bog’liq barcha pul tushumlari va hisobot davridagi turli valyutalarni ishlatish ehtimolligini hisobga olgan holdagi xarajatlar kiritiladi;
- ishonchlilik va maksimum samara.

Investitsion loyiha investor nuqtai nazaridan samarali deb baholanishi uchun, birinchidan, uni amalga oshirish ijobiy bo’lishi,

ikkinchidan, alternativ loyihalarni solishtirish cho'g'ida yuqoriroq samaraga ega bo'lgan loyihani ma'qul qo'rish lozim.

- vaqt omili hisobi;
- loyihani amalga oshirishdagi kutilayotgan xarajatlar va tushumlar hisobi;
- baholashning ko'p bosqichligi;
- inflyatsiya ta'siri va loyihani amalga oshirishdagi bir nechta valyutalarni qo'llash ehtimolini hisobga olish;
- noaniqlik va risklar ta'sirining hisobi;
- loyihaning turli ishtirokchilari borligini inobatga olish.

Investitsiya loyihalarini har tomonlama (xususan moliyaviy, texnologik, tashkiliy, muddati va boshqalar) xarakterlash mumkin. Bularning har biri investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda muhimdir, lekin ko'p hollarda investitsiya faoliyatida moliyaviy va iqtisodiy mezonlar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatda investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonini samarali olib borish, kelgusida yuqori daromad keltirib, iqtisodiyotdagi ishsizlik masalasini hal etishda ham muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ahamiyati benihoya katta, u quyidagilar bilan izohlanadi:

- birinchidan, investitsiya loyihalari ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

- ikkinchidan, import o'mini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun iqtisodiyotning ustuvor sohalari bo'yicha investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi;

- uchinchidan, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jligi aligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlash;

- to'rtinchidan, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish

quvvatlarini, moddiy- texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi;

- beshinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko'ri maklashadi;

- oltinchidan, mamlakatdagi infratuzilmani rivojlantirishda katta rol o'ynaydi;

- yettinchidan, iqtisodiyotga xorijning ilg'or tashkilotchilik va boshqaruv tajribalarini qo'llash imkoniyati tug'iladi;

- sakkizinchidan, ekologiya va atrof-muhitni himoya qilishga yordam beradi va h.k.

Investitsiya loyihalari, avvalo, ustuvor tarmoqlarga, ya'ni neft va ximiya sanoati, transport, energetika, er osti qazilma boyliklarini ishlab chiqarishga, qurilish, telekommunikatsiya tarmoqlariga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga va ularni keng qayta ishlashga, turizm sohasini rivojlantirishga qaratilishi lozim. Milliy iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining moliyalashtirish manbalari tarkibiga e'tibor beradigan bo'lsak, uning tarkibida 2011 yilda davlat byudjeti mablag'lari 5,1 foiz; chet el investitsiyalari 25,3 foiz; korxonalar va aholi mablag'lari 49,0 foiz; boshqa manbalar 20,6 foizga etganini ko'rish mumkin (1-jadval). Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari tarkibining o'zgarishini ijobiy deb baholanishiga asosiy sabab investitsiya loyihalarini davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish asta-sekin kamayib, korxonalar va aholi mablag'lari, chet el investitsiyalari va boshqa manbalar evaziga aksariyat qismi amalga oshirilmoqda.

2. 2011-2015 yillarga mo'ljalangan investitsiya dasturining iqtisodiy ahamiyati.

Keyingi yillarda mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanib, iqtisodiyot 8 foizdan kam bo'lmagan o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda. YAIM ning 4 dan 1 qismi sanoat sektori ulushiga to'g'ri keladi. 2013 yilda respublikaga 3 mlrd AQSH dollari qiymatida investitsiyalar jalb qilindi. Ularning 72 foizi to'g'ridan- to'g'ri chet el sarmoyalaridir. Moliyaviy resurslarning asosiy qismi ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlashga yo'naltirilgan. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda O'zbekiston Tiklanish va Taraqqiyot fondining hissasi ham oshib bormoqda. Xususan, shu paytgacha mazkur fond mablag'lari hisobidan umumiy qiymati 29 mlrd AQSH dollariga teng 86 ta loyiha moliyalashtirildi. Kelgusida fondning ustav jamg'armasini 15 mlrd AQSH dollaridan 25 mlrd AQSH dollarigacha oshirish ko'zda tutilgan. Loyihalarga chet el sarmoyadorlarini jalb qilish maqsadida hukumat tomonidan energetika, homashyo ta'minoti hamda zamonaviy infratuzilmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Iqtisodiyot vaziri o'rinbosari o'z ma'ruzasida O'zbekistonda barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlayotgan asosiy faktorlarga ishtirokchilar e'tiborini qaratdi. Unga ko'ra, iqtisodiyotda ichki va tashqi muvozanatning ta'minlanganligi, faol investitsiya siyosati, tuzilmaviy islohotlar, transport va ijtimoiy infratuzilmalarni modernizatsiyalash, mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, eksportni qo'llab - quvvatlash va rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiy ko'rsatkichilarning ijobiy bo'lishini ta'minlamoqda. neft va gaz, kimyo, energetika, qishloq ho'jaligi kabi asosiy strategik sohalarda amalga oshirilayotgan yirik investitsion loyihalar bo'yicha ham ma'lumot berdi. Xususan, hozirda Ustyurt gaz kimyo kompleksini qurish ishlari davom etmoqda. Mazkur loyiha qiymati qariyb 3 mlrd 200 mln AQSH dollarini tashkil etadi. Shuningdek, ayni paytda Angren- Poy yo'nalishi bo'yicha yangi temir yo'l liniyasi barpo etilmoqda. Hozirda elektrofikatsiyalangan temir

yo'llarining 19 km ishga tushirildi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mazkur loyihalarning samaradorligini ta'minlashda qulay ishbilarmonlik muhiti muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu ma'noda birgina 2011- 2014 yillar mobanyida 15 ta qonun, 30 dan ortiq Prezident va hukumat qarorlari qabul qilindi. Statistik hisobotlar 1,4 barobar, moliyaviy hisobotlar 1,5 barobar, ruxsat beruvchi protseduralar 1,3 barobar va litsenziyalanadigan faoliyat turlari 1,25 barobarga qisqartirildi. Ayni paytda 2015- 2020 yillarga mo'ljallangan investitsion dastur tayyorlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi investitsiya dasturi to'g'risida"gi PQ-1855-son Qarori bilan tasdiqlangan 2013 yilda amalga oshiriladigan yangi ishlab chiqarishlarni yaratish, amaldagilarini zamonaviylashtirish va qayta qurish bo'yicha yirik investitsiya liyihalarining yig'ma manzilli dasturidan ko'chirma.

Tashbbuskorlar va loyihalar nomi	Loyaha quvvati	Amalga oshirish muddati
Raqamli televideniye bosqichma-bosqich o'tish va uning qamrovini kengaytirish	Respublika aholisining 90%dan ortig'ini raqamli televidenie bilan qamrab olish	2011-2015 yy.
Yangi avlod (NGN) tarmog'i texnologiyalari bo'yicha shaharlararo kommutatsiya markazlarini zamonaviylashtirish va kengaytirish	Bir vaqtning o'zidagi ulanishlarni ko'paytirish	2011-2013 yy.
"UNITEL" MCHJ XICHK mobil aloqa tizimini kengaytirish (navbatdagi bosqich)	Sig'imni 10 mln. abonentgacha ko'paytirish	2013 y.
"COSCOM" MCHJ XK mobil aloqa tizimini texnik va texnologik rivojlantirish (navbatdagi bosqich)	21 218 mln. minut efir vaqtini taqdim etish	2013 y.
O'zbekiston Respublikasi hududlarida CDMA-450 mobil tarmog'ini EVDO texnologiyasini joriy qilgan holda rivojlantirish	Qo'shimcha baza stansiyalarni o'rnatish	2013-2014 yy.
Keng polosali optik tarmoqlarni FTTx twxnologiyasi asosida rivojlantirish	Keng polosali FTTx tarmoqlarini qurish	2013-2014 yy.
Radiomonitoring va teleradioeshittirish tizimini zamonaviylashtirish (II bosqich)		2013 y.

2013-yilda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi ekvivalentda 13,0 milliard dollarni tashkil etib, 2012-yildagiga nisbatan 11,3 foizga o'sdi. Xorijiy investitsiyalar hajmi 3,0 milliard AQSh dollaridan ortiq bo'ldi, uning 72 foizidan ortig'i to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir.

Investitsiya dasturi doirasida ishlab chiqarish yoʻnalishida umumiy qiymati qariyb 2,7 milliard AQSh dollarini tashkil etgan 150 ta loyihan, malga oshirish/tugallandi. Ishlab chiqarish chiqimlarini ratsionallashtirish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlarining amalga oshirilishi natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini oʻrtacha 11,2 foizga, yalpi ichki mahsulotning energiya sarfi koʻrsatkichini esa 15,3 foizga pasaytirish taʼminlandi. Jahon bozori konʻyunkturasining beqarorligiga qaramay, eksport hajmining 10,9 foizga oʻsishi taʼminlandi va tashqi savdo aylanmasining 1,3 milliard AQSh dollari miqdoridagi ijobiy saldosiga erishildi. Jami eksport hajmining 72 foizidan ortigʻi xom ashyo boʻlmagan tovarlarga toʻgʻri keldi. Respublikaning bank tizimi barqaror faoliyat koʻrsatmoqda, uning kapital yetarliligi darajasi minimal xalqaro standartlardan 3 baravar ortiq miqdorda saqlanib qolmoqda, likvidligi esa eng yuqori talablardan 2,2 baravar koʻpdir. Oʻtgan yili tijorat banklarining jami kapitali 25 foizga koʻpaydi, kredit portfeli jami summasining 80 foizga yaqini ichki manbalar hissasiga toʻgʻri keladi. 2015-yilda iqtisodiyotimizga qariyb 16 milliard dollar qiymatidagi investitsiya kiritildi va bu asosiy fondlar umumiy hajmining salkam 23,3 foizini tashkil etadi. Oʻtgan 5-yil davomida iqtisodiyotimizga jami boʻlib qariyb 67 milliard dollar investitsiya yoʻnaltirildi, buning 21 foizdan ortigʻi xorijiy investitsiyalardir. Buning natijasida mamlakatimiz, shahar va qishloqlarimiz qiyofasi tanib boʻlmas darajada oʻzgarib bormoqda, ishlab chiqarish va sanoat jadal surʼatlar bilan rivojlanmoqda, uning tarkibi tubdan yangilanmoqda, yuqori texnologiyalarga asoslangan zamonaviy korxonalar ishga tushirilib, ishlab chiqarish modernizatsiya va diversifikatsiya qilinmoqda, iqtisodiyotimizning raqobatdoshligi oshmoqda. Bugun biz Oʻzbekistonimizda barpo etilayotgan eng zamonaviy, ulkan va noyob sanoat obyektlari bilan har tomonlama faxrlanishga haqlimiz. Ayniqsa, Surgʻil koni negizida qiymati 4 milliard dollardan ziyod boʻlgan Ustyurt gaz-kimyo majmuasi kabi obyektlarning foydalanishga topshirilayotgani, «Jeneral motors» kompaniyasi bilan hamkorlikda

avtomobil dvigatellari ishlab chiqarilayotgani, «MAN» kompaniyasi ishtirokida Samarqand viloyatida yuk avtomobillari va avtobuslar ishlab chiqaradigan yangi kompleks tashkil etilgani, shuningdek, Yaponiyaning «Isuzu» kompaniyasi bilan birgalikda avtobuslar ishlab chiqarilayotgani, «Xorazm avtomobil ishlab chiqarish birlashmasi» mas'uliyati cheklangan jamiyati bazasida «Damas» va «Orlando» yengil avtomobillari ishlab chiqarish o'zlashtirilganini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Yangi korxonalarni ishga tushirish va faoliyat ko'rsatayotgan obyektlarni modernizatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish hisobidan yurtimizda faqat oxirgi 5-yilning o'zida 5 millionga yaqin yangi ish o'ri yaratilgani biz uchun nihoyatda muhim bo'lgan masalani yechishda katta amaliy qadam bo'ldi.

3. 2011-2015 yillarga mo'ljallangan investitsion dastur bo'yicha amalga oshirilgan ishlar.

2015-yil boshidan buyon Investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 160,9 million dollarlik 63 ta loyiha amalga oshirildi. Maxsus tashkil etilgan industrial zonalarda 2015 yil boshidan buyon umumiy qiymati 16,1 million dollarlik 5 ta loyiha, jumladan, «Jizzax» maxsus industrial zonasi hududida tikuv mashinalari, avtomobil tormoz kolodkalari, metizlar, metall profillar, polipropilen quvurlar, fittinglar, ventil va aksessuarlar hamda «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi hududida bakteriyalar va virusga qarshi dori preparatlari ishlab chiqarish hayotga tatbiq etildi. Umuman, mamlakatimizda joriy yilning birinchi yarmida 1866 ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi va 24,8 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari tashkil etildi. Yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va mavjudlarini kengaytirish bo'yicha eng ko'p loyihalar qurilish materiallari sanoatida (666 loyiha), oziq-ovqat sanoatida (461), to'qimachilik va tikuvchilik sanoatida (337), mebel sanoatida (169), kimyo va neftkimyo sohasida (149) amalga oshirildi.

Yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va mavjudlarini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilgan eng ko'p loyihalar

Yo'nalish	Loyihalar soni
Qurilish materiallari sanoatida	666
Oziq-ovqat sanoatida	461
To'qimachilik va tikuvchilik sanoatida	337
Mebel sanoatida	169
Kimyo va neftkimyo sohasida	149

Bundan tashqari, texnologik jarayonlar va xomashyo hamda materiallar sarflash normalarini oqilona tashkil etish, yo'qotish va noishlab chiqarish xarajatlarini bartaraf etish, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga doir chora-tadbirlar doirasida shu yil boshidan buyon yirik korxonalarda qiymati 43,3 million dollarlik 819 ta ma'nan va jismonan eskirgan uskunalar

almashtirildi. Ko'rilgan choralar natijasida yirik sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxi o'rtacha 9,6 foiz kamaytirildi, sanoatda mehnat unumdorligi 6,4 foiz oshirildi va yalpi ichki mahsulotda energiya sarfi 10,4 foizga qisqartirildi. 2013-yilda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi ekvivalentda 13,0 milliard dollarni tashkil etib, 2012-yildagiga nisbatan 11,3 foizga o'sdi. Xorijiy investitsiyalar hajmi 3,0 milliard AQSh dollaridan ortiq bo'ldi, uning 72 foizidan ortig'i to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir. Investitsiya dasturi doirasida ishlab chiqarish yo'nalishida umumiy qiymati qariyb 2,7 milliard AQSh dollarini tashkil etgan 150 ta loyihani amalga oshirish tugallandi. Prezidentimiz Islom Karimovning 2011 yil 28 noyabrda qabul qilingan «Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishda muhim dasturilamal bo'lmoqda. Tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shifokorlarning malaka va mahoratini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu boradagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishda davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag' miqdori yildan-yilga oshirilmoqda. Masalan, 2009 yilda investitsiya dasturi doirasida bu maqsadlarga 9,3 milliard so'm sarflangan bo'lsa, 2012 yilda bu ko'rsatkich 256 milliard so'mni tashkil etdi. 2012 yilning 1 dekabrigacha investitsiya dasturi doirasida ajratilgan mablag'ning 241,7 milliard so'mi o'zlashtirildi, poytaxtimizda va hududlarda bir yuz o'nta davolash muassasalarida qurilish va rekonstruksiya ishlari yakunlandi, deb ta'kidlandi yig'ilishda. Respublika ixtisoslashtirilgan jarrohlik markazining kardiojarrohlik majmuasi, Surxondaryo viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi, Samarqand viloyati Bulung'ur tumani tibbiyot birlashmasi markaziy poliklinikasi va tug'ruq bo'limi, Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani markaziy poliklinikasi, Andijon viloyati Oltinko'l tumani tibbiyot birlashmasi tug'ruq majmuasi kabi qator zamonaviy tibbiyot maskanlari foydalanishga topshirildi. So'nggi rusumdagi tibbiy texnologiyalar bilan jihozlangan ushbu tibbiyot maskanlarida ilgari davolash imkoni bo'lmagan ko'plab og'ir xastaliklarni o'z vaqtida aniqlash va samarali

davolash, aholining barcha qatlamiga zamonaviy tibbiy-profilaktika xizmati ko'rsatishga erishilmoqda. Jahonda umumiy e'tirof etilgan rivojlanishning "o'zbek modeli" amalga oshirilishida O'zbekistonning yutuqlari va istiqbollari, jahon iqtisodiyotining chuqur va davomli inqirozi sharoitlarida iqtisodiyotni inqirozga qarshi boshqarish bo'yicha ko'rilayotgan samarali chora-tadbirlar nufuzli iqtisodiyotchi olimlar va xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan yuqori baholanayotganligi alohida ta'kidlandi. Jumladan, 2013-yil sentabr-oktabr oylarida mamlakatimizga tashrif buyurgan Xalqaro valyuta jamg'armasi missiyasi boshlig'ining bayonotida global iqtisodiy vaziyatning yomonlashganligiga qaramay, 2013-yilda O'zbekistonda kuchli byudjet va tashqi pozitsiyalar, barqaror bank tizimi va davlat qarzining past darajasi barqaror makroiqtisodiy natijalarga erishishga ko'maklashayotgani davom etayotganligini, iqtisodiy rivojlanish prognozlari esa yaqin istiqbolda ijobiyligini, qaydetdi. 2013-yil yakunlari bo'yicha yalpi ichki mahsulotning o'sishi 8 foizni, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmlari – 8,8 foizni, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi – 6,8 foizni tashkil etdi, qurilish ishlari hajmi – 16,6 foizga, xizmatlar xajmi – 13,5 foizga, chakana tovar aylanmasi – 14,8 foizga o'sdi. Davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz miqdorida profitsit bilan ijro etildi. Inflyatsiya darajasi prognoz parametrlaridan oshmadi va 6,8 foizni tashkil etdi. Sanoat, ijtimoiy, yo'l-transport va kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish va texnologik jihatdan modernizatsiyalash bo'yicha faol investitsiya siyosati amalga oshirilishi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining 11,3 foizga o'sishini ta'minladi. Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 3 milliard AQSh dollaridan oshdi, ularning 72 foizdan ortig'i to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalardir. Investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 2,7 milliard AQSh dollariga yaqin bo'lgan 150 ta ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish tugallandi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar, eksport qiluvchilarni rag'batlantirish va ularning raqobatli ustunliklarini amalga oshirish, jahon bozori kon'yunkturasi o'zgaruvchanligiga qaramay, eksport hajmining 10,9 foizga o'sishini va tashqi savdo

aylanmasining sezilarli ijobiy saldosini ta'minladi. Respublikaning bank tizimi barqaror faoliyat ko'rsatmoqda, banklar kapitalining yetarliligi minimal xalqaro standartlardan 3 baravar ortiq bo'lgan darajada saqlanib qolmoqda, uning likvidligi esa eng yuqori talablardan 2,2 baravar ortiqdir. O'tgan yili tijorat banklarining jami kapitali 25 foizga ko'paydi. Banklar kredit portfeli jami summasining 80 foizga yaqini ichki manbalar hisobiga shakllantirildi. ustaqillikning o'tgan davri mobaynida yurtimizdagi iqtisodiy yuksalish hamda amalga oshirilgan keng ko'lamli tarkibiy o'zgartirishlar xalqaro tashkilotlar, yirik kompaniyalar, banklar, investitsiya fondlari va agentliklarning O'zbekistonga bo'lgan e'tiborini tobora kuchaytirmoqda.

Xususan, joriy yilda O'zbekistonda boshlangan davlat mulkini xususiylashtirish dasturi hamda keng ko'lamli investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonlari xalqaro ishbilarmonlar doirasida katta qiziqish uyg'otdi.

5-6 noyabr kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan Xalqaro investitsiyaviy forumda Yevropa Hamjamiyati, Koreya Xukumati, Germaniya, Polsha, Yaponiya, Quvayt kabi jami 33 ta davlatning 300 dan ortiq kompaniyalari, shuningdek, investitsiya fondlari, yirik tahlil markazlari, Jaxon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasidan jami 560 dan ortiq vakillar ishtirok etdilar.

Yalpi yig'ilish davomida Forum ishtirokchilari mustaqilik yillarida muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida amalga oshirilgan islohotlar, ayniqsa dunyo miqyosida tan olingan taraqqiyotning "o'zbek modeli" tamoyili negizida olib borilgan iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartirishlar strategiyasi va natijalari bilan batafsil tanishtirildi. Bunda asosiy e'tibor mamlakat rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2015-2019 yillarda iqtisodiyotni yanada isloh qilish, tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiyalash dasturining negizini tashkil etuvchi O'zbekistonni rivojlantirishni istiqbolli yo'nalishlariga qaratildi. Ta'kidlandiki, mazkur dastur mazmun-mohiyatiga ko'ra, mamlakat iqtisodiyotining bozor munosabatlariga to'liq o'tishdagi vazifalarni o'z ichiga olgan, ya'ni: iqtisodiyotni isloh qilishni davom

ettirish va yanada chuqurlashtirish; Koreya, Germaniya, Yaponiya, AQSH, Shvetsariya, Fransiya va boshqa rivojlangan davlatlarning yuqori texnologiyalarini jalb qilgan holda, O'zbekistonda mavjud bo'lgan boy tabiiy va xom-ashyo resurlari negizida sanoat tarmog'ini diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash, zamonaviy korxonalarni bunyod etish, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilgan tarkibiy o'zgartirishlarni davom ettirish; xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, iqtisodiyotda xususiy sektorining o'rnini va ulushini oshirish;

iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish, aksiyadorlik va korporativ mulk shakllarini rivojlantirish. Bugungi kunda O'zbekistonda keng ko'lamdagi Xususiylashtirish dasturi qabul qilinib, ushbu dasturga binoan 1247 ta davlat aktivlarini salohiyatli investorlarga sotish ko'zda tutilgan.

Yalpi yig'ilishda shuningdek, Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchisi-Bosh direktor Xuan Miranda, Jaxon banki Vitse-prezidenti Siril Myuller, Xalqaro moliya korporatsiyasi Vitse-prezidenti Dmitris Sitsiragos, Koreya Respublikasi sanoat, savdo va tabiiy resurslar vazirining birinchi o'rinbosari Li Gvan Sop, Yevropa Hamjamiyatining Markaziy Osiyodagi maxsus vakili Piter Burian o'z ma'ruzalari bilan qatnashdilar va O'zbekistonning mustaqillikka erishgan davri mobaynida qo'lga kiritgan yutuqlariga yuqori baho berdilar.

Yig'ilishda ta'kidlanganidek, jahon iqtisodiyotida kechayotgan global inqiroz tobora chuqurlashib borayotgan bir sharoitda, hamma davlatlar ham barqaror iqtisodiy yuksalishni amalga oshira olmaydi. Bu borada, bugungi kunda yuzaga kelgan murakkab vaziyatga qaramasdan O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlik saqlanib qolgani va uzoq davr mobaynida iqtisodiy yuksalishning yuqori darajalari ta'minlanayotgani, faol investitsiya faoliyati va tarkibiy islohotlar iqtisodiyotda o'sish ko'rsatkichlarining pasayib ketmasligini ta'minlamoqda.

«MAN Truck & Bus AG» kompaniyasi mintaqaviy rahbari Yan Kolmayer, «Lotte Chemical» prezidenti Xa Su Yong, «GM Uzbekistan Operation» Xektor Villarreal, «Uzbek-Oman Investment Company»

Bosh direktori Badar Al Shanfari, «Isuzu» kompaniyasining mintaqaviy direktori Sutsui Xiroshi, «Indorama Korporeyshn» boshqaruvchi direktori Prakesh Kerjival O'zbekistonda amalga oshirilayotgan loyihalar, ishbilarmonlik va investitsiya sohalaridagi o'zaro hamkorlikni yanda chuqurlashtirish borasidagi o'z fikrlarini o'rtoqlashdilar.

So'zga chiqqanlarning ta'kidlashicha, O'zbekiston juda katta investitsiya salohiyatiga ega. Inson kapitali va professional tayyorlangan yoshlarning mavjudligi, boy tabiiy resurslari, rivojlangan industrial baza, ishlab chiqarish infratuzilmasi va asosiysi Yevropa va Osiyoning transport yo'laklari kesishgan qulay mintaqada joylashganligi sababli O'zbekiston xorijiy kompaniyalar uchun o'z mahsulotini sotish uchun qulay bozor sifatida emas, balki yuqori texnologik ishlab chiqarishlar va tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan korxonalarni barpo etish uchun investitsiyalarni kiritish maqbul bo'lgan mamlakat sifatida ko'rilmogda. So'zga chiqqan xorijiy ishtirokchilar, O'zbekiston mamlakat iqtisodiyotiga investitsiya kiritayotgan xorijiy kompaniyalar uchun keng ko'lamdagi imtiyozlar, preferensiyalar, kafolatlarni beruvchi ishonchli va to'lov qobiliyatiga ega hamkor sifatida e'tiborga loyiqqligini alohida ta'kidladilar. Bularning isboti sifatida, bugungi kunga kelib, respublikada dunyoning 90 davlatining investorlari tomonidan barpo etilgan 5 mingdan ko'p qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqdalar. Forum yalpi yig'ilishidan so'ng, uning ishi 5 ta seksiya yig'ilishlarida davom etdi. Ushbu seksiya yig'ilishlarida respublikada muvaffaqiyat bilan faoliyat ko'rsatayotgan mahalliy kompaniyalar vakillari tomonidan xorijiy investorlarga taklif etilayotgan davlat mulki ob'ektlari va davlatning aksiyalari paketlari, shuningdek, iqtisodiyotning aniq soha va tarmoqlari rivojlantirish istiqbollari va investitsiyalash imkoniyatlariga bag'ishlangan muhokamalar bo'lib o'tdi.

Bundan tashqari, neftgaz, neftkimyo va kimyo, avtomobil va elektrotexnika, farmatsevtika, tekstil, oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xalqaro turizm sohalarida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari

ko'rib chiqildi. Forum doirasida, ishtirokchilarga davlat ulushi xorijiy investorlarga sotilishi taklif etilayotgan yirik korxonalar va aksiyadorlik jamiyatlarini borib ko'rish imkoniyati yaratildi. Ular Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Xorazm, Navoiy viloyatlari va Toshkent shahridagi korxonalar faoliyatli bilan tanishdilar. Forum yakunida umumiy summasi 12 mlrd. dollardan oshiq bo'lgan 100 dan ortiq hujjatlar imzolandi, shundan 5 mlrd. dollari – to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir. O'zavtosanoat" Aksionerlik kompaniyasi ma'lumotlariga ko'ra, tasdiqlangan "2013 yil uchun O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturi" doirasida umumiy qiymati 221,83 mln. AQSH dollariga teng 16 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi. Yil yakunlariga binoan, umumiy qiymati 150,20 mln. dollar bo'lgan 12 ta loyiha joriy etilgan, shuningdek, quyidagi loyihalarning amalga oshirilishi yakuniga yetgan:

- "Eksteryer va interyer uchun bo'yalgan plastik detallar ishlab chiqarishni tashkillashtirish, "Uz-Koram Co." MCHJ – umumiy qiymati 7,64 mln. dollar (loyiha quvvati – 150 ming to'plam, yangi ish joylari – 39 ta);
- "Lacetti" avtomobilidagi gaz chiqaruvchi tizimni ishlab chiqarishni o'zlashtirish, "Uz-Dong Von Co." QK – umumiy qiymati – 0,8 mln. dollar (loyiha quvvati – 30 ming to'plam, yangi ish joylari – 10 ta);
- "Lacetti" modelidagi qoshimcha detallarni o'zlashtirish, "Uz-Koram Co." MCHJ – umumiy qiymati – 0,7 mln. dollar (loyiha quvvati – 45 ming to'plam, yangi ish joylari – 3 ta);
- "GM Uzbekistan" YAJ avtomobillari uchun jgutlar ishlab chiqarish bo'yicha quvvatlarni oshirish, "Uz-Kodji" QK – umumiy qiymati 2,1 mln. dollar, loyiha tejamkorlik asosida amalga oshirilgan (loyiha quvvati – 120 ming to'plam, yangi ish joylari – 15 ta);
- "Avtomobil oynalariga termo ishlov berish liniyasini modernizatsiyalash, "Avtooyina" MChJ" – umumiy qiymati 2.12 mln. dollar (loyiha quvvati – 270 ming to'plam);


- “Avtomobil oyna ko'targichlari ishlab chiqarishni tashkillashtirish” – umumiy qiymati 9,8 mln. dollar (loyiha quvvati – 250 ming to'plam, yangi ish joylari – 90 ta);
- “Avtomobil o'rindiqlarining egilish mexanizmi va sirpang'ichlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish, “Uz-Tong Xong Co.” QK – umumiy qiymati 2,7 mln. dollar, loyiha tejamkorlik asosida amalga oshirilgan (loyiha quvvati – 92 ming to'plam, yangi ish joylari – 38 ta);
- “Lacetti” avtomobili yirik hajmli panellarini ishlab chiqarishni tashkillashtirish, “Uz-Semyung” QK – umumiy qiymati 1 mln. dollar (loyiha quvvati – 45 ming to'plam, yangi ish joylari – 30 ta);
- “Lacetti MSE” (feyslift) zamonaviy modelini ishlab chiqarishni o'zlashtirish, “GM Uzbekistan” YAJ – umumiy qiymati 23,4 mln. dollar (loyiha quvvati – 50 ming avtomobil);
- “Eskirgan uskuna va texnologik jihozlarni modernizatsiya qilish va alishtirish, “GM Uzbekistan” YAJ – umumiy qiymati 16,25 mln. dollar;
- “Samarqand viloyatida yuk avtomobillari va tarkibiy qismlarni ishlab chiqarish bo'yicha yangi majmua barpo etilishi (III bosqich – tirkama texnikasi va ustqurmalarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish)” – umumiy qiymati 81,5 mln. dollar (loyiha quvvati – 3 mingta, yangi ish joylari – 580 ta);
- “Lacetti” modelining biriktiruvchi tasmalari va “Spark” modelining zarbga qarshi eshik to'sinlari ishlab chiqarishni o'zlashtirish, “Uz-Dong Von Co.” QK – umumiy qiymati 1,6 mln. dollar (loyiha quvvati – 90 ming to'plam, yangi ish joylari – 8 ta).

Mahalliyashtirish dasturi doirasida kompaniya korxonalari tomonidan umumiy qiymati 6864,4 mlrd. so'm bo'lgan, 51 ta loyiha bo'yicha mahsulot ishlab chiqarilishi ta'minlangan. Hozirgi vaqtda ushbu tarmoqda 24 ming nafardan ziyod kishi mehnat qilmoqda, 2013 yil yakunlariga ko'ra 900 ta yangi ish joylari yaratildi.

2010-2015 yillarga mo'ljallangan davlat investitsiya dasturlari doirasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'zlashtirilish dinamikasi qaraydigan bo'lsak 2010 yilda 2757,43

million AQSH dollarini tashkil etgan bo`lsa, 2015 yilda bu ko`rsatkich 3300 million AQSH dollarini tashkil etgan. 3.1.1-rasm

3.1.1-rasm. 2010-2015 yillarga mo`ljallangan davlat investitsiya dasturlari doirasida to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalarning o`zlashtirilish dinamikasi (million AQSH dollari)*



* O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari.

4. Investitsiya dasturi doirasida Xorazm viloyatida amalga oshirilgan ishlar.

Xorazm viloyatida ham 2015 yilda iqtisodiy dasturining belgilangan asosiy ko'rsatkichlari bajarilgan. Ta'kidlash joizki, shu davrida yalpi hududiy mahsulot 10,1 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 21,9 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish 5,9 foizga, qurilish ishlari hajmi 13,2 foizga, chakana savdo aylanmasi 12,5 foizga, jami xizmatlar 13,4 foizga o'sishiga erishilgan. 2015 yilda sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalariga jami 559 mlrd. so'm miqdoridagi investisiyalar jalb qilish hisobiga 1725 ta loyiha to'liq amalga oshirilgan hamda 11,6 mingta yangi ish o'rinlari yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2013-2015 yillarda Xorazm viloyati sanoat salohiyatini rivojlantirish Dasturi to'g'risida»gi qarorlariga asosan o'tgan 3 yil davomida 308,5 mln. dollar investisiya mablag'lari o'zlashtirilishi hisobiga 432 ta sanoat korxonasi o'z faoliyatini boshladi. Natijada, sanoat sohasida 2015 yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2,4 trln. so'mga etkazilib, ushbu ko'rsatkich 2012 yilga nisbatan 2,1 martaga oshgan. Bugungi kunda viloyatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining mashinasozlik va metallni qayta ishlash sohasiga 31,0 foizi, engil sanoat sohasiga 27,2 foizi, oziq-ovqat sanoati tarmog'iga 17,7 foizi va boshqa tarmoqlarga 16,6 foizi to'g'ri keladi. Hududiy investisiya dasturi doirasida jami 25 mln. dollar, shundan, 15,8 mln. dollar miqdoridagi mablag' to'g'ridan-to'g'ri investisiya shaklida jalb etilib, 14 ta loyiha ishga tushirilgan. Xususan, SHovot tumanidagi «SHovot tekstil» qo'shma korxonasiga Janubiy Koreya va SHveysariyadan 14,3 mln. dollar to'g'ridan-to'g'ri jalb etildi va ip- kalava ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilib, 6,1 mln. dollarlik mahsulotlar eksport qilindi. Hududiy eksport dasturiga asosan 2015 yilda jami 45,7 mln. dollarlik mahsulotchet ellik xaridorlarga etkazib berilib, 2014 yilga nisbatano'sish 3,3 barobarni tashkil etdi. Hisobot davrida 12 ta yangi korxona eksport faoliyatiga jalb etildi va ular tomonidan 2,2 mln. dollarlik mahsulot va xizmatlar eksport qilindi. SHuningdek, Rossiya va Qozog'iston davlatlarida 5 ta yangi

savdo uylari tashkil etildi. 2015 yil davomida 862 ming dollarlik 3 ta yangi turdagi mahsulotlar eksporti o'zlashtirildi. Viloyatda 2015 yili qishloq xo'jaligida ham ijobiy natijalar qo'lga kiritildi. Dehqon va fermerlarimiz 224 ming tonna g'alla va 264 ming tonnadan ortiq paxta hosili etishtirdilar. Bu 2014yilga nisbatan 500 tonna g'alla va 6,6 ming tonna paxta hosili ko'p olindi, deganidir. Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarining 1 ming 390 tasi ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklariga aylantirilgan. O'tgan yillarda 31,3 mlrd. so'm hisobiga 1,6 ming km uzunlikdagi kollektorlarda meliorativ tadbirlar o'tkazilib, 26,1 ming gektar erda er osti suvlari sathi pasayishiga va kuchli sho'rlangan er maydonlarining 32,3 ming gektardan 31,9 ming gektargacha kamayishiga erishilgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlashga mo'ljallangan jami 3ming 820 tonnadan ortiq sig'imga ega 14 ta zamonaviy sovutkichli omborxona va kameralar qurilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 28 apreldagi PQ-2340-son qaroriga asosan viloyatda ommaviy savdolar orqali sotilishi belgilangan 50 ta davlat aktivlari va ulushlaridan 36 tasi sotilib, 10 ta korxonalarning ulushlari hamda aktivlari savdoga chiqarilgan. SHuningdek, 30 ta davlat ob'ektlari 16,9 milliard so'm investisiya kiritish va 685 ta yangi ish o'rinlari yaratish sharti bilan «nol» qiymatida berilgan. Bundan tashqari, buzishdan bo'shagan 26 ta davlat ob'ektlari 970 ta yangi ish o'rinlarini yaratish va 25,6 mlrd. so'mlik investisiyalar kiritish sharti bilan tadbirkorlik sub'ektlariga ajratib berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi PF-4720-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida aksiyadorlik jamiyatlarida yangi namunali boshkaruv strukturasi joriy etish bo'yicha reja-jadval ishlab chiqilib, viloyatdagi 30 ta aksiyadorlik jamiyatlarining barchasida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlari o'tkazildi va tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, jamiyatlarning tashkiliy tuzilmalari tasdiqlangan. Bundan tashqari, ustav fondida davlat ulushi mavjud bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining rahbarlari tarkibi 2015 yil 26 avgust kunida attestasiyadan o'tkazilib, 45 nafar rahbarlar attestasiyadan o'tib, shundan 16 nafari egallab turgan lavozimlariga

loyiq deb topilgan.2015 yilda viloyat iqtisodiyot tarmoqlariga jami 1,4 trln. so'm miqdorida investisiya mablag'lari jalb qilingan. Ushbu mablag'ning 42,8 foizi, ya'ni 600 mlrd. so'mi ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan. Jalb qilingan xorijiy investisiyalar va kreditlar hajmi 117 mlrd. so'mni, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar 5,5 mlrd. so'mni tashkil etgan.Hukumat kafolati ostida ajratilayotgan mablag'lar va imtiyozli kreditlar hisobidan qishloq joylarida namunaviy loyihalar asosida uy – joylar qurishga o'tgan yilda jami 146,0 mlrd.so'mga yaqin mablag' sarflandi. 22 ta massivda 865 ta turar joy qurilib, egalariga topshirildi. Bu massivlarda 19 ta bozor infratuzilma ob'ektlari qurib ishga tushirilgan.O'tgan 2015 yilda viloyatda tashqi muhandislik va infratuzilma ob'ektlari, jumladan, 89 km uzunlikdagi elektr tarmoqlari, suv va tabiiy gaz ta'minoti borasida mos ravishda 115 km va 32 km tarmoqlar yangidan qurildi va rekonstruksiya qilindi.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2137-son qaroriga muvofiq hududlarda pudrat tashkilotlarini rivojlantirish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hisobiga viloyatda yildan-yilga pudrat ishlari hajmi o'rtacha 13-15 foizga o'smoqda. Mazkur qarorga muvofiq 2015 yilda 3 ta ixtisoslashtirilgan yirik korxonalarni tashkil qilinib, ushbu pudrat tashkilotlari qurilish Reestriga kiritilgan.Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya sarfini qisqartirish, energiyani tejoychiexnologiyalarni joriy etish Dasturiga asosan viloyatda 2015 yilda 74 ta xalq ta'limi muassasalaridagi 236 ta, 24 ta sog'liqni saqlash muassasalaridag37 ta isitish qozonlari energiya tejamkor qozonlarga almashtirilgan. Suv xo'jaligi tashkilotlari nasos stansiyalarida 27 ta elektr dvigatellari almashtirildi.SHuningdek, 806,5 ming dona cho'g'lanma lampalar energiya tejamkor elektr yoritgichlarga almashtirilgan.2015 yilda 3,1 mln. kVt.soatelektr energiya va 1,0 mln. metr kubtabiiy gaz tejashga erishilgan.2015 yilda viloyatda tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga 494 mlrd. so'm yoki 2014 yilga nisbatan 118 mlrd. so'm ko'p kreditlar ajratilgan.YAlpi hududiy mahsulotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000 yildagi 34,2 foizdan bugun 74,1 foizgacha,

sanoat mahsuloti ishlab chiqarishda esa 24,0 foizdan 35,3 foizgacha o'sgan. SHu bilan birga viloyat aholisining tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlari ulushi 2010 yildagi 55,4 foiz o'rniga 2015 yilda 56,9 foizgacha o'sgan. Aholi daromadlari ortishi natijasida ichki iste'mol talabi kengaymoqda. Aholining uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanish darajasida ham sifat o'zgarishlari ro'y bergan. Xususan, viloyatda har 100 oilaning 41 tasi engil avtomobillar, 38 ta oila shaxsiy kompyuterlar mavjud. O'sish sur'atlari mos ravishda besh yil avvalgidan 2,3 va 9,5 barobarni tashkil etgan. O'tgan yilda tasdiqlangan dasturga asosan 747 ta xizmat ko'rsatish shohobchalari tashkil qilinib, xizmat ko'rsatish sohasida 4 ming 155 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan 2015 yil yakunlarida aholiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 13,4 foizga o'sdi. YAlpi ichki mahsulotdagi xizmatlar ulushi 40,0 foizni tashkil qilgan YUqori texnologik xizmatlar qatorida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari eng jadal rivojlanishi hisobiga, bunday xizmatlar oxirgi besh yilda 2 baravarga, hisobot yilida esa 10%ga o'sdi. Jumladan, 2015 yil boshiga internet tarmog'idan va «Ziyonet» informasion resurslaridan foydalanuvchi abonentlar soni 396 mingdan ortiqni tashkil etgan. 2015 yilda viloyatda 60,6 mingta ish o'rni tashkil etilib, shundan 87,0 foizi qishloq joylariga to'g'ri keladi. SHu o'rinda akademik lisey kasb-hunar kollejlari, va oliy ta'lim muassasalarining 24,7 mingdan ortiq bitiruvchisi ishga joylashtirilgan. Kollej bitiruvchilarining tadbirkorlik faoliyatlarini boshlashlari uchun 2015 yilda tijorat banklari tomonidan 15,6 mlrd so'm miqdorida imtiyozli mikrokreditlar ajratilgan. *(Bu oldingi yilga nisbatan 3,5 mlrd. so'm ko'pdir)* «Keksalarni e'zozlash yili» dasturi doirasida 189 mlrd. so'm miqdorida mablag' sarflanib, reja 103,3% ga bajarilgan. 2015 yilda 527 nafar keksalarimizning uylari joriy va kapital ta'mirlangan. SHuningdek, 1984 nafariga keksalar uchun sihatgoh yo'llanmalari berildi, 164 nafar ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlari tibbiy ko'rikdan o'tkazilgan.

.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki Respublikamizda investitsion dasturlar boyicha juda kata ishlar amalga oshirildi.

jumladan mazkur investitsiya dastorini oladigan bolsak dastur doirasida ko'plab aholi ish bilan taminlandi, yangi mahsulotlar ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilda va eng muhimi iqtisodiyotni yanada rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. birgina 2015-yilni oladigan bo'lsak, maskur yil davomida iqtisodiyotga 15 milliard xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. 2015-yil boshidan buyon Investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 160,9 million dollarlik 63 ta loyiha amalga oshirildi. Maxsus tashkil etilgan industrial zonalarda 2015 yil boshidan buyon umumiy qiymati 16,1 million dollarlik 5 ta loyiha, jumladan, «Jizzax» maxsus industrial zonasi hududida tikuv mashinalari, avtomobil tormoz kolodkalari, metizlar, metall profillar, polipropilen quvurlar, fittinglar, ventil va aksessuarlar hamda «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi hududida bakteriyalar va virusga qarshi dori preparatlari ishlab chiqarish hayotga tatbiq etildi. Umuman, mamlakatimizda joriy yilning birinchi yarmida 1866 ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi va 24,8 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari tashkil etildi. Yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va mavjudlarini kengaytirish bo'yicha eng ko'p loyihalar qurilish materiallari sanoatida (666 loyiha), oziq-ovqat sanoatida (461), to'qimachilik va tikuvchilik sanoatida (337), mebel sanoatida (169), kimyo va neftkimyo sohasida (149) amalga oshirildi. O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlik saqlanib qolgani va uzoq davr mobaynida iqtisodiy yuksalishning yuqori darajalari ta'minlanayotgani, faol investitsiya faoliyati va tarkibiy islohotlar iqtisodiyotda o'sish ko'rsatkichlarining pasayib ketmasligini ta'minlamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 2016 yil 16 yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" 2015 yil 17 yanvar.
3. Q.I.Xamrayev, "Investitsiya loyihalari tahlili" fanidan o'quv-uslubiy majmua.Urganch 2015 yil.
4. R.X.Karlibayeva "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish".Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.T-2011.
5. H.H.Imomov "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish". Toshkent "Iqtisod-moliya" 2010 yil.
6. A.E.Ishmuhammedov,M.S.Qosimov,Z.A.Jumayev Q.H.Jumayev "Loyiha tahlili" O'YoUAJN Toshkent-2004.
7. A.S.Jo'rayev, D.Yu.Xo'jamqulov, B.S.Mamatov "Investitsiya loyihalari tahlili" "Sharq" nashriyoti Toshkent-2003
Internet saytlar.
 1. www.uzreport.uz
 2. www.stat.uz
 3. www.mygov.uz
 4. www.gov.uz